Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar - iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 82 390,5 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 79 319,7 mlrd. so'mni (102,1 %), o'rmon xo'jaligi – 2 637,9 mlrd. so'mni (103,3 %), baliq xo'jaligi – 432,9 mlrd. so'mni (112,1 %) tashkil qildi.



## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining taqsimlanishi



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 96,3 % dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 3,2 % - o'rmon xo'jaligi, 0,5 % - baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2019 yilning yanvar – iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Samarqand (10 031 mlrd. so'm) va Andijon (8 816 mlrd. so'm) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Aksincha kam hajmga ega hududlar jumlasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi (2 106 mlrd. so'm), Sirdaryo (2 701 mlrd. so'm) va Navoiy (3 741 mlrd. so'm) viloyatlarini keltirib o'tish mumkin.

Xususan yuqori o'sish sur'atlari Qoraqalpog'iston Respublikasida (105,4 %), Qashqadaryo viloyatida (104,7 %) va Xorazm viloyatida (103,9 %) kuzatildi. Buxoro va Surxondaryo (100,1 %), Andijon (100,9 %), Toshkent (101,4 %) va Sirdaryo (101,8 %) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati








## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Respublikaning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Samarqand viloyatining ulushi 12,2 % ni tashkil etdi va hududlar bo’yicha yetakchilik qilmoqda, Andijon va Toshkent viloyatlari mos ravishda 10,7 % va 10,6 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Qoraqalpog’iston Respublikasi (2,5 %), Sirdaryo (3,3 %) va Navoiy (4,5 %) viloyatlarida qayd etildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2019 yilning yanvar – iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 79 097,4 mlrd. so’mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – 33 993,3 mlrd. so’mni (103,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 45 104,1 mlrd. so’mni (101,7 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



# Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, %




Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 77,9 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 19,4 %i – fermer xo'jaliklariga, 2,7 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g’ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti ulushining hududlar bo'yicha xo'jaliklar toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g’ri kelishi kuzatildi.

2019 yilning yanvar – iyun oylari yakunlariga ko’ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlar tarkibidagi fermer xo’jaliklarining ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Sirdaryo viloyatida (30,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Xorazm viloyatida (86,6 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (8,9 %) qayd etildi.

Fermer xo’jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo`yicha eng kam ko`rsatkich Xorazm viloyatida (12,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Sirdaryo viloyatida (66,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xorazm viloyatida (0,9 %) qayd etildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jaliklar toifalari kesimida taqsimlanishi



# Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi



## Dehqonchilik

2019 yilning yanvar – iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 33 993,3 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 43,0 % ni tashkil qildi.



## Donli ekinlar

Hajmi, ming t




O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





# O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha donli ekinlar etishtirish hajmi, ming t

| | |
|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi** | **5 081,8** |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 147,2 |
| Andijon | 437,2 |
| Buxoro | 339,2 |
| Jizzax | 456,0 |
| Qashqadaryo | 783,2 |
| Navoiy | 170,2 |
| Namangan | 326,1 |
| Samarqand | 433,9 |
| Surxondaryo | 528,2 |
| Sirdayo | 343,7 |
| Toshkent | 404,5 |
| Farg'ona | 455,5 |
| Xorazm | 256,9 |

## Sabzavotlar












2019 yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 966,3 ming t sabzavotlar (2018 yilning yanvar – iyuniga nisbatan 1,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, Sabzavot mahsuloti umumiy hajmidan 87,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha sabzavot etishtirish hajmi, ming t



# Kartoshka







**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2019 yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 469,9 ming t kartoshka (2018 yilning yanvar – iyuniga nisbatan 2,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 93,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha kartoshka etishtirish hajmi, ming t

| | |
|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi** | **1 469,9** |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 23,4 |
| Andijon | 160,4 |
| Buxoro | 141,0 |
| Jizzax | 9,2 |
| Qashqadaryo | 93,8 |
| Navoiy | 53,1 |
| Namangan | 106,6 |
| Samarqand | 295,9 |
| Surxondaryo | 191,1 |
| Sirdayo | 28,2 |
| Toshkent | 133,1 |
| Farg'ona | 184,1 |
| Xorazm | 50,0 |

# Poliz














2019 yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 184,0 ming t poliz (2018 yilning yanvar - iyuniga nisbatan 3,4 % ga kam) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 69,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to’g’ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha poliz etishtirish hajmi, ming t



## Mevalar va rezavorlar














2019 yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 949,9 ming t mevalar va rezavorlar (2018 yilning yanvar – iyuniga nisbatan 3,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 68,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



# O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha mevalar va rezavorlar etishtirish hajmi, ming t

| | |
|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi** | **949,9** |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 8,4 |
| Andijon | 186,1 |
| Buxoro | 141,1 |
| Jizzax | 15,1 |
| Qashqadaryo | 71,3 |
| Navoiy | 40,1 |
| Namangan | 58,7 |
| Samarqand | 111,7 |
| Surxondaryo | 74,9 |
| Sirdayo | 10,2 |
| Toshkent | 42,3 |
| Farg'ona | 153,2 |
| Xorazm | 36,8 |

# Uzum







Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi








2019 yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 36,9 ming t uzum (2018 yilning yanvar – iyuniga nisbatan 19,9 % ga ko’p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 64,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to’g’ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha uzum etishtirish hajmi, ming t



# Chorvachilik



2019 yilning yanvar – iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 45 104,1 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 57,0 % ni tashkil etdi.

## Go'sht














## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha go'sht *(tirik vaznda)* etishtirish hajmi, ming t

**O'zbekiston Respublikasi** **1 128,1**



# Sut







Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi








2019 yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 739,0 ming t sut (2018 yilning yanvar – iyuniga nisbatan 2,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sut mahsuloti umumiy hajmidan 94,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, ming t



# Tuxum














2019 yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3 559,8 mln. dona tuxum (2018 yilning yanvar – iyuniga nisbatan 7,0 % ga ko’p) ishlab chiqarildi. Tuxum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tuxum mahsuloti umumiy hajmidan 56,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to’g’ri kelishini qayd etish lozim.



## O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha olingan Tuxum hajmi, mln. dona

| | |
|---|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 3 559,8 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 163,0 |
| Andijon | 271,4 |
| Buxoro | 211,9 |
| Jizzax | 127,1 |
| Qashqadaryo | 230,3 |
| Navoiy | 171,6 |
| Namangan | 295,2 |
| Samarqand | 623,9 |
| Surxondaryo | 268,6 |
| Sirdayo | 69,2 |
| Toshkent | 615,8 |
| Farg'ona | 267,3 |
| Xorazm | 244,5 |

# Baliq







**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**








2019 yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 31 617 t. baliq (2018 yilning yanvar – iyuniga nisbatan 9,5 % ga ko’p) ovlandi. Ovlangan baliqni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, ovlangan baliq umumiy hajmidan 54,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to’g’ri kelishini qayd etish lozim.



## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, t



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 12 484,4 ming boshga yetdi.

### Yirik shoxli qoramollar










- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 202,0 ming boshga (1,6 %) ko‘paydi.

2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 94,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.



# O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh

| | |
|---|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 12 484,4 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1 076,1 |
| Andijon | 1 046,0 |
| Buxoro | 1 201,0 |
| Jizzax | 873,1 |
| Qashqadaryo | 1 554,5 |
| Navoiy | 467,8 |
| Namangan | 693,7 |
| Samarqand | 1 528,9 |
| Surxondaryo | 892,1 |
| Sirdayo | 412,4 |
| Toshkent | 857,1 |
| Farg'ona | 997,4 |
| Xorazm | 884,3 |

2019 yilning 1 iyul holatiga sigirlarning umumiy bosh soni 4 463,8 ming boshga yetdi.




2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 55,6 ming boshga (1,3 %) ko‘paydi.

2019 yilning 1 iyul holatiga sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, sigirlarning 94,6 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.



## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2019 yilning 1 iyul holatiga qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 21 535,3 ming boshga yetdi.




2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 484,7 ming boshga (2,3 %) ko'paydi.

2019 yilning 1 iyul holatiga qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, qo'y va echkilarning 82,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



# O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2019 yilning 1 iyul holatiga parrandalarning umumiy bosh soni 80 530,2 ming boshga yetdi.




2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 6 326,5 ming boshga (8,5 %) ko'paydi.

2019 yilning 1 iyul holatiga sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, parrandalarning 56,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
- 71-230-81-11
- 71-230-80-54